

HUDUDLARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi¹

Muxammedov Tolibjon Tohir o'g'li²

Annotatsiya: *Aynan hudud iqtisodiyotining rivojlanish ko'rsatkichlari butun davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi mezondir. Hududlarning rivojlanishini ta'minlashda davlatning roli tartibga solish funksiyalari bilan cheklanib qolmaydi balki, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish, sanoat va hududiy tizimlarda progressiv siljishlarni ta'minlash, mahsulot va xizmatlar eksportini qo'llab-quvvatlashda ham o'z aksini topadi.*

Kalit so'zlar : *hudud, ishlab chiqarish, ijtimoiy infratuzilma, reyting.*

Hududlarni rivojlantirish davlat boshqaruvining asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, jahon bozorlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, fuqarolar daromadlarini huquqiy jihatdan qayta taqsimlash, mulkiy munosabatlarni uyg'unlashtirish, mavjud tartibni mustahkamlash, boshqaruvni demokratlashtirish, davlat boshqaruvi organlarining tranzitini ta'minlashdan iborat. Hududiy rivojlanish davlat boshqaruvi obyekti sifatida o'ziga xos tuzilmasi, madaniyati va rivojlanish darajasiga ega bo'lgan o'zaro bog'liq elementlarning murakkab tizimi bo'lib, u davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va uning samarali mexanizmlarini amalga oshirishga bevosita bog'liqdir. Hududiy iqtisodiyotda bozor o'zgarishlarini faollashtirish, hududiy rivojlanishni davlat tomonidan boshqarish mexanizmlari va vositalarini o'zgartirish, mahalliy hokimiyat organlarining o'zaro hamkorligi tizimini samarali tashkil etish davlat hamda uning hududlari o'rtasidagi sheriklik tamoyiliga asoslangan optimal boshqaruv modellarini izlashni taqozo etadi. Bundan ko'rinadiki, hududlarni yanada rivojlantirish yo'nalishlaridan biri hududlarni rivojlantirishni strategik rejalashtirishning asosiy ustuvor yo'nalishlarini innovatsiyalar asosida belgalashdir, jumladan³:

- hududiy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish modeliga yo'naltirish va inson salohiyatini rivojlantirish;
- hududlarning investision jozibadorligini oshirish va ularda innovatsion faoliyatni faollashtirish;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;
- hududning tabiiy resurslari va iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini, raqobatbardoshligini oshirish; Strategik ustuvorliklarni amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini jadallashtirishni taqozo qiladi.

Taqdim etilgan mexanizm hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning maqsad va vazifalariga erishish, uni normativ-huquqiy, ilmiy-uslubiy va tashkiliy jihatdan ta'minlash konsepsiyasini


¹ Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisitalabasi

² Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich talabasi

³ Prezidentimizning 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ4702-son qarori. <https://lex.uz/docs/4803531>



tavsiflaydi. Ushbu mexanizm strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq boshqaruvning umumiy tamoyillariga asoslanadi. Umuman olganda, strategik reja ishlab chiqilayotgan obyektning hozirgi holatini tahlil qilish, strategik maqsadlarni shakllantirish va vazifalarni belgilash, strategiyani ishlab chiqish, uni amalga oshirish, nazorat qilish, strategiyani amalga oshirishning muvofiqligini aniqlash, belgilangan maqsad va vazifalar bilan natijalarni o'z ichiga oladi.



1-rasm. Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmi.⁴


Ushbu algoritmdan kelib chiqqan holda, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish va baholashdan boshlanishi kerak. Bunda makroiqtisodiy vaziyatning holati va tendensiyasi, tabiiy resurs, hudud iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash, mehnat salohiyati hamda ularni amalga oshirish samaradorligi baholash kerak. Ushbu tadqiqotlar natijalari asosida hududni rivojlantirish strategiyasini rejalashtirishning axborot ta'minoti shakllantirilishi, shu asosda uni 386eying ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilanishi kerak.

Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik rejasi hududni rivojlantirish bo'yicha vazifalarni belgilash, belgilangan maqsadlarga erishish yo'llarini asoslash, salohiyatli imkoniyatlarni tahlil qilish, istiqbolli yo'nalishlarni belgilashni nazarda tutuvchi hujjat ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, uni amalga oshirish bizga muvaffaqiyatga erishishga, tanlangan yo'nalishlar bo'yicha harakatni tashkil etish usullarini ishlab chiqishga, resurslardan oqilona foydalanish usullarini asoslashga, shuningdek, viloyat ma'muriyati va viloyat hamjamiyatiga birgalikda harakat qilish imkonini beradi. Uning natijasi, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi, harakat yo'nalishi, vositalar hamda usullar majmui bo'lishi kerak, ular yordamida hudud iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning ustuvor vazifalari hal etiladi.

⁴ Muallif ishlanmasi



Albatta, buning uchun hududlarning sezilarli farqlanishini hisobga olgan holda, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishdan avval strategik rejalashtirish amalga oshiriladi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hozirgi holatini chuqur tahlil qilishda istiqbolga yo'naltirilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish uchun ularning kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, tabiiy xom ashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini, iqtisodiy va investisiyaviy salohiyatini, shuningdek, hududlarning boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimini joriy etish maqsadida, qabul qilingan "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi qaror bu jabhadagi ishlarni yangi bosqichda rivojlantirish, mavjud muammolarni hal etish imkonini berdi.



2-rasm. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi mezonlari.⁵

- rasmda keltirilgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi mezonlari doirasida, har bir hudud uchun manzilli yo'naltirilgan ustuvor yo'nalishlar ishlab chiqish ularning har birining o'ziga xos imkoniyatlari va xususiyatlari hududni strategik rejalashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda hisobga olinishi kerak. Strategik rejalashtirishning belgilangan ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning maqsad va vazifalari shakllantiriladi. Shu bilan birga, hududning raqobatbardoshligini oshirish va uning tabiiy resurs salohiyatini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini rivojlantirishni ta'minlash, hududlararo hamkorlikni rivojlantirish, uni institutsional shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar qatoriga qo'yilishi lozim⁶.

Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, maqsad va vazifalari belgilab berilgandan so'ng ularni davlat boshqaruvi organlari bilan kelishilgan holda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadigan ishchi guruhlarini tuziladi. Ularning asosiy vazifasi ushbu strategiyani amalga oshirish uchun moliyaviy xarajatlarni aniqlash va kutilgan natijalarni

⁵ Muallif ishlanmasi

⁶ http://www.nbu.gov.ua/portal/Soc_Gum/Dtr_ep/2010_6/files/EC610_23.pdf.



bashorat qilishdan iborat. Hududiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirish uchun dastlab dastur-rejalashtirish va normativ hujjatlar majmuasini ishlab chiqish, xususan, strategiyani amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yillik dasturi, manzilli hududiy dastur, viloyat ichki hududlarini rivojlantirish strategiyasi nazarda tutiladi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 33-34-maqсадlariga muvofiq, Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4–1,6 baravarga oshirish va hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish ko'zda tutilgan bo'lib, unda:

- 14 ta hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" bo'lgan 388eying va tumanlar bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish. Samarqand va Namangan shaharlarini istiqbolda "millionlik shaharlar"ga aylantirish bo'yicha choralar ko'rish;
- 450 ming aholiga mo'ljallangan Yangi Andijon shahrining dastlabki bir nechta mavzellarini qurib, foydalanishga topshirish. Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizga yetkazish;
- "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida hududlarning "o'sish nuqtalari"dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurishga alohida e'tibor qaratish;
- Respublika hududlarida qariyb 80 ming kilometr magistral va taqsimlovchi elektr tarmoqlari, 20 mingdan ortiq transformator punktlari hamda 200 dan ziyod podstansiyani qurish va yangilash.
- hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish orqali 388eying 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni ijrosi sifatida tegishli davlat maqsadli dasturlari, hududiy dastur va chora-tadbirlar ishlab chiqildi, hududlarni rivojlantirish bo'yicha shartnomalar tuzildi, ularda budjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida moliyalashtirish hajmlari ko'zda tutildi, bu esa o'z navbatida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni qisqartirishga, aholi turmush farovonligini oshirishga sabab bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abidovna, A. S. (2024). XUSUSIY OLIY TA'LIMDA HR MENEJMENTDAN FOYDALANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 68-74.
2. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2024). СОЦИАЛЬНОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО КАК ИНСТРУМЕНТ РЕШЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННЫХ ПРОБЛЕМ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 347-352.
3. Алимова, Ш. А., & Джураева, М. С. (2024). РОЛЬ ИННОВАЦИЙ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 355-359.
4. EI, I. (2024). МАКРОИQTISODIY KO'RSATKICHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 275-281.
5. EI, I. (2024). YALPI ICHKI MAHSULOT TUSHUNCHASI VA UNI HISOBLASHNING ASOSIY SHARTLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 266-274.



6. EI, I. (2024). O 'ZBEKISTONDA MAKROIQTISODIY KO 'RSATKICHLAR O 'ZGARISHLARINING 2022 VA 2023 YILLAR VA TARMOQLAR MIQYOSIDA TAHLILI. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(3), 44-52.
7. Mamlakat, I. (2023). THE USE OF DICTIONARIES IN READING AND UNDERSTANDING LITERARY TEXTS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(09), 285-292.
8. Supiyevna, B. M. (2024). IMPROVING THE EFFICIENCY OF LEADER LABOR IN THE MODERN MANAGEMENT SYSTEM. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 51-55.
9. Bazarova, M., Zhomartkyzy, G., & Kumargazhanova, S. (2019). Using an ontological model for transfer knowledge between universities. In *Computational and Information Technologies in Science, Engineering and Education: 9th International Conference, CITech 2018, Ust-Kamenogorsk, Kazakhstan, September 25-28, 2018, Revised Selected Papers 9* (pp. 34-43). Springer International Publishing.
10. Sodikova, N. T. (2024). PROMOTION OF LABOR PRODUCTIVITY GROWTH IN THE ENTERPRISE AS A BASIC CONDITION. *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal*, 1(3), 188-198.
11. To'rayevna, S. N. (2024). KORXONA FAOLIYATIDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.
12. To'rayevna, S. N. (2024). O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION XUSUSIYATLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 113-118.
13. Халилов, Б. Б., Нарзуллаева, Г. С., Баходиров, С., & Университети, Б. Д. (2021). ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛИЯТИ ВА УНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. *MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS*, 51.
14. Bahodirovich, X. B. (2024). KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINING MOLIYAVIY MEХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАСHTIRISH MASALALARI.
15. Bahodirovich, X. B. (2024). O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARINI TUZISH TARTIBI. *Gospodarka i Innowacje.*, 52, 9-13.
16. Kayumovich, K. O., Gulyamovich, D. I., & Khudoynazarovich, S. A. (2020). Information and information technologies in digital tourism. *Special issue on financial development perspectives of the life standard in Central Asia*, 32.
17. Khudoynazarovich, S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 153-159.
18. Khudoynazarovich, S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 153-159.
19. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). TIKUVCHILIK SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION STRATEGIYALARINI QOLLASH. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(2), 325-330.
20. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA OSHIRISHNING DOLZARBLIGI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 183-187.



21. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2024). TIKUVCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BAZAVIY INNOVATSION STRATEGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(3), 332-336.
22. Qizi, R. N. O. (2024). YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR O'SISH KO'RSATKICHLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 113-118.
23. қизи Рахмонқулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
24. Рахманқулова, Н. (2023). Роль инвестиций в региональном экономическом развитии. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 168-170.
25. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(3), 314-322.
26. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). BUXORO VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASI VA BANDLIK. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(3), 67-73.
27. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). "BUXORO SUV TA'MINOTI" MCHJ KORXONASINING UMUMIQTISODIY HOLATI. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(3), 390-398.
28. Akbarovna, N. N. (2024). TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT YURITISHNING SHAKLLARI VA YO'NALISHLARI. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(3), 57-63.
29. Akbarovna, N. N. (2024). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK IQTISODIYOTNING MUHIM SOHASI SIFATIDA. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(3), 307-313.
30. Akbarovna, N. N. (2024). O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA MAKROIQTISODIY DASTURLARNI ISHLAB CHIQUISH VA AMALGA OSHIRUVCHI YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(3), 383-389.
31. Qayumovna, J. Z., Ne'matovna, R. N., & Azizovna, P. A. FAVORABLE INVESTMENT CLIMATE FORMATION ISSUES FOR ATTRACTING ACTIVE INVESTMETNS. *GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY*, 29.
32. Жумаева, З. (2023). МИРОВОЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. *Nashrlar*, 318-321.
33. Jumayeva, Z. K., & Mamadjonov, G. N. (2024). Ways to Strengthen Financial Control in the Utilization of State Budget Funds. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(1), 61-64.
34. Bustonovna, J. Z. (2024). IQTISODIY MUAMMOLARNI HAL QILISHDA BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING MUHIM SHARTLARI. *Miasto Przyszłości*, 55, 1436-1440.
35. Bustonovna, J. Z. (2024). JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZIMINI TAKOMILASHTIRISH.
36. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).



37. Azimov, B. F. (2024). MOLIVAVIY SEKTORDA STATISTIK KUZATISH VA UNING USULLARI. XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI, 1(1), 28-31.
38. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). TIKUVCHILIK SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION STRATEGIYALARINI QOLLASH. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(2), 325-330.
39. Azimov, B., Toshev, F., & Raximova, D. ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA MOLIVALASHTIRISH MODELLARI. TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA, 4.
40. Turayevich, I. A. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNI BOSHQARISH YO 'LLARI. Miasto Przyszłości, 55, 1464-1468.
41. AT, I. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARI INVESTITSION LOYIHALARINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI VA O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(2), 306-314.
42. AT, I. (2024). TADBIRKORLIK FAOLIYATINING DAVLAT TOMONIDAN QO 'LLAB QUVVATLANISHI VA SOHAGA MINTAQALAR MIQYOSIDA INVESTITSIYA JALB QILISH SAMARADORLIGI. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 1(2), 264-271.
43. Avazovna, R. L. (2024). PENSIYA TA'MINOTINI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ORQALI PENSIYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MASALALARI. Miasto Przyszłości, 55, 1469-1474.
44. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(3), 314-322.
45. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). BUXORO VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASI VA BANDLIK. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(3), 67-73.
46. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O 'RNI, SALOHİYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. Educational Research in Universal Sciences, 2(8), 48-52.
47. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHDA DIVERSIFIKATSIYA STRATEGIYASINING AHAMIYATI. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(3), 300-306.
48. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). KORXONALARNING BOZORDAGI FAOLLIGINI BAHOLASHDA ANSOFF MATRISASINI QO'LLASH: AFZALLIKLARI VA USTUNLIKLARI. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(3), 100-106.
49. Yunusovana, U. N., Munira, D., Nigina, M., & Munojot, M. (2021). WAYS OF DEVELOPING DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 527.
50. Sadilloevna, D. M. (2024). IQTISODIYOTDA INSON TARAQQIYOTI KONSEPSIYASI VA UNI BAHOLASH MEZONLARIDAN FOYDALANISHNING METOLOGIK ASOSLARI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(08), 161-167.
51. Djurayeva M.S. (2024). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF A MODERN ENTERPRISE. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(12), 222-227.



52. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOT MAQSADLARINI BELGILASH VA ULARGA ERISHISH BO 'YICHA STRATEGIK REJALASHTIRISH JARAYONLARI. Science, education, innovation: modern tasks and prospects, 2(1), 22-28.
53. Raxmonqulova, N. O. (2025). SAMARALI RAHBARNING XUSUSIYATLARI, LIDERLIK USULLARI VA ULARNING TASHKILOT MUVAFFAQIYATIGA TA'SIRI. Science, education, innovation: modern tasks and prospects, 2(1), 29-35.
54. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTNING TURLI TUZILMALARI VA ULARNI BOSHQARISH USULLARINING AFZALLIKLARI. Science, education, innovation: modern tasks and prospects, 2(1), 15-21.
55. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTNING MOLIYAVIY REJASI VA UNING MUVAFFAQIYATIGA TA'SIRI. Science, education, innovation: modern tasks and prospects, 2(1), 8-14.

